

**Inson huquq va erkinliklarini himoyalash mexanizmi**

**Yarmatova Marjona Bahromovna.**

Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey 2-bosqich  
8-guruh o'quvchisi

**Annotatsiya:** Inson huquqlari va erkinliklarini himoyalash tizimi jamiyatning demokratik rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Ushbu mexanizm xalqaro va milliy darajadagi huquqiy normalarga asoslangan bo'lib inson huquqlarini kafolatlash, buzilishining oldini olish va tiklashga yo'naltirilgan. Xalqaro miqyosda Birlashgan Millatlar Tashkiloti BMT, Yevropa Inson Huquqlari Sudi, Inson huquqlari bo'yicha xalqaro konvensiyalar va tashkilotlar ushbu jarayonda asosiy rol o'ynaydi. Milliy darajada esa Konstitutsiya, inson huquqlari bo'yicha maxsus idoralar ombudsman, sudlar, prokuratura va fuqarolik jamiyati institutlari nodavlat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari ushbu huquqlarni himolarni himoya qilishda xizmat qiladi. Huquqiy himoya vositalari sud himoyasi, ma'muriy himoya, ombudsman institute va xalqaro tashkilotlarga murojaat qilish imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, inson huquqlarining ta'minlanishida ta'lim, huquqiy targ'ibot va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish muhim rol o'ynaydi. Ushbu mexanizmning samarali ishlashi huquq ustuvorligi, sud mustaqilligi va davlat organlarining fuqarolar oldidagi hisobdorligi ta'minlanishi jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Inson huquqlari, erkinliklari, huquqiy himoya, xalqaro huquq, Konstitutsiya, ombudsman, sud tizimi, BMT, fuqarolik jamiyati, huquqiy madaniyat, huquq ustuvorligi, demokratik jamiyat.

**Kirish:** Xalqaro hamjamiyatga kirgan O'zbekiston Respublikasi mamlakatda inson huquqlari va erkinliklarini mustahkamlashga faol yordam berish, milliy qonunlarni inson huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarga moslashtirish majburiyatini o'ziga oldi. Zamonaviy xalqaro hamjamiyat insonning tabiiy huquqlari g'oyasini huquqiy me'yoriy hujjatlar darajasida mustahkamlagan. Ularning ichida Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi alohida o'rinda turadi. Deklaratsiyada bugungi kunda har bir inson ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ega bo'lishi lozim bo'lgan huquq va erkinliklarning minimal hajmi keltirilgan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi asosida ko'plab bajarilishi shart bo'lgan hujjatlar ishlab chiqilgan. Ular Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining deyarli barcha nizomlariga aniqlik kiritishdi va ularni rivojlantirishdi hamda inson huquqlarini himoya qiluvchi ma'lum xalqaro vositalarni yaratishdi. Masalan, Fakultativ bayonnoma alohida fuqarolarga huquqlari buzilayotganligidan BMT qoshidagi maslahat organi-Inson huquqlari bo'yicha qo'mitaga shikoyat qilish imkonini berdi. Deklaratsiya, ikkita Pakt va Fakultativ bayonnoma BMTning umumiy, huquqiy qamrov darajasi bo'yicha universal hujjatlaridir va ular Inson huquqlari Xartiyasini tashkil qiladi. Ko'pincha u Inson huquqlari to'g'risida xalqaro bill deb ataladi. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risida Yevropa konvensiyasi 1950-yil o'z ichiga fuqarolik hamda siyosiy, shuningdek ba'zi ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarni olgan Konvensiyaga qo'shimcha bayonnomalari Yevropa Kengashining yetakchi hujjatlariga aylandilar. Ularning amalga oshirilishini nazorat qilish uchun maxsus mexanizmlar-Yevropa komissiyasi va Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi ta'sis etildi. Komissiya va Sud fuqarolarning huquqlari buzilishi bilan bog'liq shikoyatlarni

ko'rib chiqadilar. Shikoyatning haqqoniyligi aniqlansa, Sud tomonidan har bir davlat shart bo'lgan qaror chiqariladi.

O'zbekiston Respublikasi qonunlarida Inson va fuqarolarning himoya qilinishi. Davlat mustaqilligiga erishgach, O'zbekiston inson huquqlarini himoya qilish milliy mexanizmini ham yaratib, bosqichma-bosqich mustahkamlab bormoqda. Inson huquqlari va erkinliklarini himoyalashda davlat ichki mexanizmining asosiy bo'g'inlari quyidagilardan iborat: Adolatli sudlovni amalga oshiradigan sud organlari, qonunlar aniq bajarilishini nazorat qiladigan va inson erkinliklari va huquqlarini himoyalaydigan prokuratura organlari, huquqbuzarliklarga chek qo'yilishi va inson huquqlarining himoya qilinishini ta'minlash bo'yicha majburiyatlarni bajaradigan ichki ishlar organlari. Mamlakatda inson huquqlari bo'yicha qo'shimcha milliy muassasalar ham tashkil etilgan. Ularga: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha Vakili Ombudsman, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Amaldagi qonun hujjatlari monitoringi instituti, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili instituti kiradi.

Huquqiy davlatda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashning eng asosiy va samarali vositasi huquq va erkinlarning sud tomonidan ta'minlanishidir. Aslida, sud tomonidan huquq va erkinliklarning ta'minlanishi ham huquq va erkinliklar davlat tomonidan ta'minlanishining bir ko'rinishidir. Lekin sudning boshqa hokimiyatlardan mustaqilligi, faqat qonunga bo'ysunishi o'rnatilganligi himoyaning samarali bo'lishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, sud fuqarolarning huquq va erkinliklarini hatto davlatdan, uning organlaridan ham himoya qiladi. Shuning uchun fuqarolarning huquqlari sud tomonidan himoya qilinishi, sudga shikoyat qilish huquqi kafolatning alohida, ta'sirchan shakli sifatida Konstitutsiyada maxsus moddada mustahkamlangan. Bu moddaning mazmuni shuni ko'rsatadiki, fuqarolar o'zlarining har qanday huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun sudga shikoyat qilish huquqiga ega. Bunday huquq fuqarolarning huquqlari davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari tomonidan g'ayriqonuniy xatti-harakat oqibatida buzilgan taqdirda amalga oshiriladi. 55-moddada: Har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. Har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqi kafolatlanadi.

Xulosa: Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biridir. Ushbu jarayon xalqaro va milliy huquqiy mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Sud tizimi, ombudsman instituti, fuqarolik jamiyati va xalqaro tashkilotlar inson huquqlarini kafolatlashda muhim rol o'ynaydi. Huquq ustuvorligi va davlat organlarining fuqarolar oldidagi ma'suliyati inson huquqlarining samarali himoyalashini ta'minlaydi. Shu bilan birga, huquqiy madaniyatni oshirish va inson huquqlari bo'yicha ta'lim-targ'ibot ishlarini kuchaytirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada, inson huquqlarining himoyalanganligi jamiyat barqarorligi va taraqqiyotiga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
- 2) O'rta ta'lim maktablarining o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslikdan.